O‘zbekistonda hayot sug‘urtasining joriy etilishi va unga ta’sir etuvchi demografik omillar ta’siri.....	1422
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
Global iqlim o‘zgarishining turizm sektoriga ta’siri: muvofiqlashtirish va barqarorlikka erishish strategiyalari	1428
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
Prospects for the development of islamic microfinance services in uzbekistan.....	1433
Sadullaeva Gulnoza Usmanovna	
Global iqlim o‘zgarishi riski uning mamlakat iqtisodiyoti moliyaviy sektoriga ta’siri	1439
Baratov Sa’dulla Norjigit o‘g‘li, Jo‘rayev Behzod Nuraliyevich	
Перспективы унификации налогов на землю и имущество	1444
Акбарова Нилуфар Нейматжановна	
Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o‘g‘li	
O‘zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta’minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o‘g‘li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o‘g‘li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaqulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug‘urta bozorlarida investitsiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	



O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	
Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	
Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar	1508
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellashtirish asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
Ikromova Odinaxon	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning obyektiv zarurati	1537
Norov Murodjon Mahmudovich	
Oliy ta'lim xizmatlari mohiyati va rivojlanish nazariyasi.....	1541
Iskandarov Shahboz Shavkat o'g'li	
Davlat-xususiy sheriklikka oid ilmiy yondashuv va qarashlarning rivojlanish tendensiyalari	1545
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Theoretical foundations of time series analysis in green economy	1552
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
Korxona faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi: nazariya va amaliyot.....	1563
Xalilov Bekzod Axmatovich	
Aholi real daromadlarini shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirishning roli.....	1568
Iskandarova Dilafruz Ikrom qizi	
Yashil iqtisodiyotda transportning tutgan o'rni.....	1573
Yuldasheva Saodat Arslanovna, Otanazarova Charos Baxtiyor qizi	
Xalqaro standartlar asosida hisob siyosati metodologiyasini takomillashtirish.....	1577
Qurbanboev Jurabek Eruvboevich	
Sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotdan samarali foydalanish istiqbollari.....	1585
Yuldasheva Saida Nematovna	
Mintaqaviy mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	1593
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
O'zbekistonda yashil sug'urta mahsulotlarini rivojlantirishda xorij tajribalari	1600
Yusufov Asfandiyor Eldor o'g'li	
Понятие и типы финансовых шоков: макроэкономический контекст и микроуровневые последствия	1606
Захарова Ирина Борисовна	
Современное состояние оздоровительного туризма в Узбекистане	1611
Сирлибеков Хабибулло Шакарбоевич	
Impact of industrial development on macroeconomic indicators.....	1621
Olchinboyev Otabek Abdusamad ugli	
Анализ предпочтений на рынке электронной торговли в Узбекистане	1625
Уразов Комил Бахрамович, Хушмуродова Мадина	
Методы оценки деятельности акционерных обществ с учетом инвестиционных рисков.....	1639
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
Xalqaro moliyaviy markazlar va ularning jahon iqtisodiyotidagi roli.....	1645
Sharipova Shaxinabonu Orif qizi	
Development of modern tourism industry in Uzbekistan through smart technologies and digital transformation.....	1649
Master's student at Silk Road University	



Iqtisodiyotda qiymat nazariyasi asosida qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatni shakllanishi.....	1656
Azizov Shohsuvor Yuldashevich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularda hisobdorlik va boshqaruvda axborotlarning tahliliyligini oshirish masalalari.....	1659
Yusupov Azizbek Baxtiyor o'g'li	
"Yashil" iqtisodiyotga o'tishda xalqaro hamkorlik: O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi yangi tendensiyalar	1665
Xashimov Pazliddin Zukurovich, Sobirxo'jaev Xadyatillo Billoxon o'g'li	
Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari	1671
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
O'zbekiston va markaziy osiyo davlatlari budjet siyosatining qiyosiy tahlili.....	1677
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
Kambag'allikni qisqartirish – mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlash omili sifatida	1683
Tashbaeva Saodatxon Alisherovna	
Финансовые технологии: сущность и задачи	1687
Амонова Хафиза	
O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va investitsiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari.....	1690
O'rinov Akmaljon Axmadjonovich	
Budjet tashkilotlarida ichki audit tizimini shakllantirish: xorijiy tajriba	1695
Po'latov Tirkash Sotiboldiyevich	
"Ichki iste'mol uchun qayta ishlash" bo'xona protseduralarini O'zbekiston sharoitida qo'llashning ahamiyati.....	1699
Buranov Husniddin Husenovich, Allabergenov Ozodjon Maksudbayevich	
To'qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	1703
Muxiddinova Kamola Sagdullayevna	
O'zbekiston respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanishini iqtisodiy tahlili	1708
Aysachev Abdulfotix Abdulfalov	
Kichik biznes korxonalari uchun eksport salohiyatini oshirish yo'llari va strategiyalar	1714
Mo'minova Kanizaxon	
Buxoro viloyatida agroklastar tizimi rivojlantirish yo'nalishlari va iqtisodiy samaradorligi	1718
Ro'ziyev Sobirjon Samatovich, Boltayeva Shaxnoz Bebudovna	
Temir yo'l tizimini modernizatsiya qilishda imitatsion model asosida tahliliy yondashuv.....	1724
Mamasidikov Muxsinjon Musajonovich	
Климатическая политика и «зеленая» трансформация: Торговля углеродными единицами (Углеродная торговля)	1730
Исламов Шохзод Шухрат ўғли	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznes sohasining rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellarini tuzish asosida baholash.....	1738
Arzikulov Otabek Ali o'g'li, Xudoyorova Ruhshona Toshpo'lot qizi	
Ikkilamchi bozorda noturar joy ko'chmas mulk qiymatini baholashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish	1743
Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna	
O'zbekiston da yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning strategik yo'nalishlari	1749
Otaxonova Dinora Musaboy qizi	
Tibbiy xizmatlarning rivojlanish evolutsiyasi va samaradorlik hamda xarajatlari tushunchalarining mohiyati.....	1754
Axmedov Zafarjon A'zamovich, Karabayev Sanjar Abdusamatovich, Uraqov Shokir Ulashovich	
Kichik biznes korxonalarda sanoat ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar	1762
Axmedova Nilufar Shuxratovna, Amirov Zubaydulla Toir o'g'li	
Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish yo'llari	1768
Sharipov Sherzod Shavkatovich	
Paxta-to'qimachilik klasterlarida buxgalteriya hisobotlarini yuritishning muhim jihatlari	1772
Madartov Bahrom Quvondiqovich	



Aksiyadorlik jamiyatlarida o'z kapitali hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida yuritishni takomillashtirish.....	1776
Axmedov Latayibxon Mamitxonovich	
Reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish yo'llari.....	1780
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	
Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish tendensiyalari.....	1785
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
O'zbekiston va islom taraqqiyot banki: hamkorlik va rivojlanish istiqbollari.....	1789
Dilovarxo'jayeva Dilnozaxon Shavkatxo'ja qizi	
Xodimlarni rag'batlantirish tizimida mehnatga haq to'lash	1793
Xamdamov Nuriddin Abdimalikovich	
Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda soliqlarning tutgan o'rni	1797
Kimsanboyeva Maftuna Baxodirovna	
Dunyo mamlakatlarida xorijiy talabalar oqimi tahlili va ta'lim eksportining demografik salohiyati	1802
Abdullayev Javoxir Jaxongirovich	
Davlat qarzini boshqarish amaliyotini takomillashtirish	1809
Djurayev Paxlaxonjon Usarovich	
Mintaqada chakana savdoni rivojlantirish istiqbollari.....	1815
Ismoilov Shohjahon O'tkir o'g'li, Abdullayev Ilyos Sultanovich	
Yuk tashish sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish	1819
Omarov Mamanbiy Allabergenovich	



YUK TASHISH SOHASINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Omarov Mamanbiy Allabergenovich

Toshkent davlat transport universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada temir yo'l transporti tizimining raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy yo'nalishlar, temir yo'l transporti tizimi samarali rivojlanishiga to'siq bo'layotgan muammolar, transport turlari o'rtasidagi raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiluvchi iqtisodiy mexanizm elementlari hamda yuk tashish sohasida temir yo'l transporti raqobatbardoshligini oshirish yo'nalishlari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: raqobatbardoshlik, samaradorlikni baholash omillari, yuklarni yetkazib berish, vazifalar ierarxiyasi, transport kompleksi, temir yo'l transporti raqobatbardoshligi.

Abstract: This article outlines the main directions for ensuring the competitiveness of the railway transport system, highlights the problems hindering the effective development of the railway sector, and proposes economic mechanism elements that enhance intermodal competition. It also presents strategic approaches to improving the competitiveness of railway freight transport.

Key words: competitiveness, efficiency assessment factors, freight delivery, task hierarchy, transport complex, railway transport competitiveness.

Аннотация: В данной статье изложены основные направления обеспечения конкурентоспособности системы железнодорожного транспорта, выявлены проблемы, препятствующие её эффективному развитию, предложены элементы экономического механизма, способствующие повышению конкурентоспособности между видами транспорта, а также определены направления повышения конкурентоспособности железнодорожных грузоперевозок.

Ключевые слова: конкурентоспособность, факторы оценки эффективности, доставка грузов, иерархия задач, транспортный комплекс, конкурентоспособность железнодорожного транспорта.

KIRISH

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning izchil rivojlanishi, avvalo, samarali tashkil etilgan transport infratuzilmasiga bog'liq bo'lib, ayni soha global savdo, investitsiyalar va texnologik almashinuvning tayanch omilidir. Hozirgi vaqtda dunyo miqyosida umumiy transport yo'llari uzunligi 50 million kilometrdan oshib, global harakatlanish tizimining barqarorligini ifodalamoqda. Jahon banki taqdim etgan ma'lumotlarga ko'ra, xalqaro transport sektori hajmi 2,2 trillion AQSh dollariga teng bo'lib, bu jahon yalpi ichki mahsulotining 6,8 foizini tashkil etadi. Ko'plab mamlakatlar iqtisodiyotida ushbu tarmoqning YAIMdagi ulushi 4–9 foiz atrofida bo'lsa, bandlik darajasida 3–7 foizlik ko'rsatkichni egallaydi [1]. Bunday statistikalar transport sohasining nafaqat iqtisodiy barqarorlik, balki milliy xavfsizlik ko'rsatkichlari bilan ham bevosita bog'liqligini ko'rsatadi.

Jahon amaliyotida transport tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirish borasida bir qator muammolar dolzarb bo'lib qolmoqda. Jumladan, resurslardan kompleks foydalanish, turli transport turlarini integratsiyalash orqali multimodal va intermodal yondashuvlarni tatbiq etish, logistika zanjirlarida vaqt va xarajatlarni kamaytirish, ilg'or boshqaruv texnologiyalarini joriy etish orqali transport-logistika xizmatlarining tezkorligini oshirish masalalari yuqori ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, temir yo'l transportining samaradorligi, ekologik tozaligi va katta hajmdagi yuklarni uzoq masofalarga yetkazishdagi ustunliklari uni strategik tarmoq sifatida ajratib ko'rsatadi. Ushbu yo'nalishda raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, "yashil" texnologiyalar, xizmatlar tannarxini optimallashtirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash, temir yo'l va boshqa transport turlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni kuchaytirish dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. Shu bilan birga, yuk tashish xizmatlarining sifatini oshirish va mijozlar bilan aloqalarni mustahkamlash ham bugungi kunning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

O'zbekiston sharoitida ham transport-kommunikatsiya infratuzilmasini izchil rivojlantirish iqtisodiy taraqqiyotning strategik omili sifatida belgilanmoqda. Xususan, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasida transport va logistika xizmatlari bozorini kengaytirish, temir yo'l



infratuzilmasini 60 foizgacha elektrlashtirish, avtomobil yo'llari tarmog'ini modernizatsiya qilish, tashqi savdo uchun "yashil koridorlar"ni shakllantirish va tranzit yuk hajmini 15 million tonnaga yetkazish kabi muhim vazifalar belgilab qo'yilgan [2]. Prezidentimiz tomonidan Oliy Majlisga yo'llangan Murojaatnomada ham: "Mahsulotlarimizni ichki va tashqi bozorlarga yetkazish, ularning tannaxsini tushirish uchun transport-logistika sohasini rivojlantirishimiz zarur", – degan fikr ilgari surilgan [3]. Bu esa transport-logistika tizimining faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorlikda ham alohida o'rin tutishini ko'rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda transport sektorining, xususan temir yo'l tizimining samaradorligini oshirish, uni xalqaro transport yo'laklariga integratsiyalash, yuk tashish xizmatlarini modernizatsiyalash hamda raqamli innovatsiyalar asosida rivojlantirish bo'yicha chuqur ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur tadqiqotlar, nafaqat transport tizimini samarali boshqarishga, balki xalqaro iqtisodiy makondagi raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Transport tizimini iqtisodiy rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari bir qator mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Iqtisodchi olim R. Xalturinning fikriga ko'ra, transport kompleksining quyidagi xususiyatlari ajratib ko'rsatiladi: uning elementlari yagona tizim sifatida faoliyat yuritadi; transport infratuzilmasi mintaqaviy tizimning boshqa tarkibiy qismlari bilan o'zaro bog'liq holda amalga oshiriladi [4].

Yu. N. Golskaya o'z tadqiqotida transport tizimini rivojlantirishning quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatadi: uning elementlari yagona tizim sifatida faoliyat yuritadi; temir yo'l transport tizimi mintaqaviy tizimning boshqa tarkibiy qismlari bilan o'zaro bog'liq holda shakllantiriladi. Demak, temir yo'l transporti hudud bilan qat'iy tarzda bog'lanmaganligi bois, harakatlanuvchi tarkib uning elementi hisoblanmaydi [5].

I. A. Semina va V. A. Kustovlarning fikricha, transport infratuzilmasining hududiy tizimlardagi quyidagi vazifalari ajratib ko'rsatiladi. Birinchidan, transport – bu hududiy xususiyatlar indikatori va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy sifatining asosiy tarkibiy qismi. Ikkinchidan, transport aloqalarni taqsimlovchi va muvofiqlashtiruvchi bo'lib, natijada operatsion makonni cheklovchi, boshqacha aytganda, "hududlarni tutashtiruvchi", ya'ni "transport xabini hosil qiluvchi" vazifalarni bajaradi [6].

A. B. Maksimov o'zining ilmiy ishlarida transport infratuzilmasini shakllantirishning quyidagi asosiy funksiyalarini ko'rsatib o'tadi:

- iqtisodiyot subyektlarining transport obyektlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish;
- mamlakat transport tarmog'ini shakllantirish;
- turli transport turlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni ta'minlash;
- mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini yuksaltirish [7].

D. Bauersoksning fikricha, temir yo'l transporti faoliyatini rivojlantirishda an'anaviy usullarga nisbatan yuk tashuvlarini tashkil etishning afzalliklari va iqtisodiy samaradorligi muhim ahamiyatga ega bo'lib, u multimodal va intermodal tashish tizimlarini tashkil etish muammolariga alohida e'tibor qaratgan. Shu bilan birga, muallif transport tarmoqlari, transport vositalari va transport kompaniyalarini o'z ichiga olgan transport tizimini alohida ta'kidlaydi [8].

Mamlakatimiz olimlaridan G'. Samadov, A. Zoxidov, A. Gulamov va M. Ravshanovlarning fikricha, "transport tizimi – bu yuk va yo'lovchilarni o'z manziliga yetkazish jarayonida o'zaro aloqador transport turlari va infratuzilmalari majmuasi, ya'ni o'zaro bog'liq bo'lgan transport sektorlari, mehnat resurslari hamda mamlakat iqtisodiyotini samarali boshqarish maqsadida transportning barcha turlarini qamrab oluvchi boshqaruv tizimidir" [9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Temir yo'l transport tizimining raqobatbardoshligini oshirish muammolarini tahlil etish bilan shug'ullangan milliy va xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlari natijalari mazkur tadqiqotning nazariy-uslubiy bazasi sifatida xizmat qilmoqda. Maqolani tayyorlashda abstrakt va analitik mushohada, qiyosiy va omilli tahlil, indikativ, tanlanma kuzatuv, taqqoslash, iqtisodiy-statistik va boshqa usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqobat umumijtimoiy kategoriya bo'lib, ijtimoiy jarayonlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yuk tashish sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy sabablaridan biri – bu iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdir. Yuk tashish sohasi har bir mamlakat iqtisodiy faoliyatida strategik ahamiyatga ega. Yuklarni samarali, arzon va tezkor tashish ishlab chiqarish jarayonlarining barqarorligini ta'minlaydi. Davlat qo'llab-quvvatlovi orqali transport infratuzilmasiga sarmoya kiritish, logistika va tashish xizmatlarining sifatini oshirish, shuningdek, mahalliy va xalqaro bozorlar o'rtasidagi savdo munosabatlarini kuchaytirish mumkin.



Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yana bir muhim omili – bu xususiy sektorga zarur shart-sharoitlar yaratishdir. Ko'pgina kichik va o'rta biznes subyektlari transport infratuzilmasiga to'g'ridan-to'g'ri sarmoya kiritmaydi. Davlat tomonidan beriladigan subsidiyalar, soliq imtiyozlari va boshqa rag'batlantiruvchi vositalar yuk tashish tarmoqlarida xususiy sektor ishtirokini kengaytiradi. Natijada, ushbu biznes subyektlari o'z tovarlarini arzon va tez yetkazib berish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Yuk tashish sohasi mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi va samaradorligi uchun muhim hisoblanadi. Tovarlarni va xomashyoning bir joydan boshqa joyga yetkazib berilishi ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan yuk tashish tizimi arzon va samarali bo'lib, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi. Misol uchun, temir yo'l orqali yuk tashish narxlarini davlat yordami sababli pasaysa, ishlab chiqaruvchilar ko'proq mahsulotni sotuvga chiqaradi, bu esa umumiy iqtisodiy o'sishga olib keladi.

Davlat tomonidan logistika va yuk tashish infratuzilmasiga sarmoyalarni ko'paytirish eksport va import operatsiyalarini tezlashtiradi. Bu esa mamlakatning xalqaro savdo hajmini oshirishga yordam beradi. Aks holda, transport infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmаса, yuk tashish jarayonlarida muammolar paydo bo'ladi, bu esa ishlab chiqarish xarajatlarining ortishiga va iqtisodiy samaradorlikning pasayishiga olib keladi.

Yuk tashish sohasining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham muhimdir. Transport sohasining rivojlanishi mehnat bozorida yangi ish o'rinlarini yaratadi, bu esa aholining bandligini oshiradi. Yuk tashish tarmoqlari rivojlanishi mamlakatdagi turli hududlar o'rtasida transport aloqalarini yaxshilaydi, bu esa hududiy tenglikni ta'minlashga xizmat qiladi. Masalan, davlat tomonidan transport tarmoqlarini rivojlantirish orqali qishloq hududlaridagi tadbirkorlar o'z mahsulotlarini tez va arzon tarzda bozorga yetkazish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Yuk tashish sohasi davlatning strategik rivojlanish rejalari tarkibida alohida o'rin tutadi. U mamlakatning tashqi va ichki bozorlardagi raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi. Masalan, agar xalqaro savdoda samarali yuk tashish tizimi mavjud bo'lmasa, eksport jarayonlari qiyinlashadi va iqtisodiyotdagi o'sish sur'ati pasayadi. Shu sababli yuk tashish sohasiga davlat tomonidan beriladigan qo'llab-quvvatlov choralarini strategik ahamiyat kasb etadi va tashqi savdo munosabatlarida raqobatbardoshlikni saqlab qolishga xizmat qiladi.

Yuk tashish sohasida davlat qo'llab-quvvatlashining turli mexanizmlari mavjud bo'lib, ularning asosiy maqsadi – sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlash va tashish xarajatlarini optimallashtirishdan iborat. Bu mexanizmlar yuk tashish kompaniyalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, mamlakatning ichki va tashqi iqtisodiy faoliyatini kuchaytirish jarayonlarida muhim rol o'ynaydi. Hozirgi kunda yuk tashish sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashda quyidagi vositalar qo'llanilmoqda (1-jadval):

1-jadval. Yuk tashish sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash vositalari¹.

№	Vositalar	Mazmun-mohiyati
	Subsidiyalar	Subsidiyalar davlat tomonidan yuk tashish korxonalariga to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy yordam sifatida beriladi. Bu yordam sohani rivojlantirish, yangi texnologiyalarni joriy qilish, transport vositalarini yangilash va zamonaviylashtirish kabi sohalarga sarflanadi. Subsidiyalar orqali davlat yuk tashish infratuzilmasini yaxshilash va transport jarayonlarini tezlashtirishga ko'maklashadi.
	Soliq imtiyozlari	Davlat tomonidan taqdim etiladigan soliq imtiyozlari yuk tashish kompaniyalarining soliq yukini kamaytirishga qaratilgan. Bunday imtiyozlar korxonalarning daromad solig'idan ozod qilish, mol-mulk solig'ini kamaytirish va soliq to'lovlarini kechiktirish shaklida bo'lishi mumkin. Soliq imtiyozlari kompaniyalarga ko'proq investitsiya kiritish va o'z faoliyatini kengaytirish imkonini beradi.
	Bojxona yengilliklari	Yuk tashish jarayonlarini tezlashtirish va uning samaradorligini oshirish uchun davlat bojxona yengilliklarini taqdim etadi. Bu yengilliklar yuklarni bojxona hududiga kiritish yoki chiqarish jarayonida qo'llaniladigan boj to'lovlarining kamaytirilishi yoki uzaytirilishi orqali amalga oshiriladi. Bojxona yengilliklari orqali yuklarni yetkazib berish tezkorligi oshiriladi, bojxona jarayonlari soddalashtiriladi.

Yuk tashish sohasini rivojlantirishda davlat qo'llab-quvvatlash vositalari samarali tarzda joriy etilgan bo'lishi zarur. Bugungi kunda faqat an'anaviy vositalargagina tayanish emas, balki zamonaviy, raqamli texnologiyalar asosidagi qo'llab-quvvatlash tizimlari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Amalda mavjud bo'lgan qo'llab-quvvatlash vositalariga subsidiyalar, soliq imtiyozlari va bojxona yengilliklari kabi mexanizmlar kiradi. Ular yuk tashish sohasining rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi. Biroq, bu vositalarni zamonaviy iqtisodiy sharoitlarga

¹ Ўрганилган манбалар асосида муаллиф томонидан шакллантирилган.



moslashtirish, ularni innovatsion yechimlar bilan boyitish va samaradorlik darajasini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Yuk tashish sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayverlaridan biri bo'lib, sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari orqali infratuzilmani modernizatsiya qilish, innovatsiyalarni joriy etish va xalqaro savdo imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq, ushbu mexanizmlarning samaradorligi va amaliy qamrovi bir xil emas. Ular o'ziga xos kuchli va zaif jihatlarga ega. Quyidagi jadvalda bugungi kunda amal qilayotgan asosiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va ularning natijalari ko'rsatilgan (2-jadval).

2-jadval. Yuk tashish sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining bugungi holati va amaliy natijalari².

№	Qo'llab-quvvatlash mexanizmi	Hozirgi holati	Amaliy natijalari
1.	Subsidiyalar	Davlat tomonidan infratuzilma va yangi texnologiyalarga qaratilgan moliyaviy yordamlar mavjud	Yangilangan transport vositalari, yangi logistika markazlarining ochilishi, kompaniyalarning sarmoya kiritish qobiliyati oshgan
2.	Soliq imtiyozlari	Soliq yukini kamaytirish uchun soliq imtiyozlari berish mexanizmi faoliyat ko'rsatadi, katta kompaniyalar ko'proq imtiyoz oladilar	Kompanialarning daromadlari oshgan, investitsiya qilish imkoniyatlari kengaygan
3.	Bojxona yengilliklari	Bojxona yengilliklari, xususan, bojxona to'lovlarini kechiktirish va qisqartirish orqali amalga oshiriladi	Yuklarning tezkor o'tkazilishi ta'minlangan, bojxona jarayonlarining vaqti qisqargan
4.	Innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash	Texnologiyalarni joriy qilish uchun davlat subsidiyalari va grantlari berilmoqda, lekin hali kamroq qamrovga ega	Ayrim yuk tashish kompaniyalari raqamli texnologiyalarni joriy qilgan, transport jarayonlarining samaradorligi oshgan
5.	Xalqaro transport yo'laklari	Davlat xalqaro yo'nalishlarni rivojlantirishga e'tibor qaratmoqda, yangi yo'nalishlar ochilmoqda	Xalqaro yuk tashish hajmi oshgan, eksport va import jarayonlari tezlashgan
6.	Qonunchilikning takomillashuvi	Davlat tomonidan yuk tashish sohasini qo'llab-quvvatlovchi qonunlar va imtiyozlar joriy qilinmoqda, lekin ba'zi qonunlar yangi sharoitlarga mos emas	Qonunchilik asosida sohaga ko'mak berilayotgan bo'lsada, uning faoliyatidagi byurokratiya va muammolar samaradorlikni pasaytirmoqda

Davlat tomonidan taqdim etilayotgan subsidiyalar, soliq imtiyozlari, bojxona yengilliklari va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi choralar yuk tashish sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil sifatida xizmat qilmoqda. Ushbu vositalar orqali infratuzilmaviy yangilanishlar, texnologik modernizatsiya va transport tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha sezilarli yutuqlar kuzatilmoqda.

Subsidiyalar va moliyaviy yordamlar orqali zamonaviy logistika markazlari barpo etilmoqda, transport vositalari yangilanmoqda va xususiy sektor sarmoyaviy faolligi oshmoqda. Bunday yutuqlar sohaning zamonaviy infratuzilmaga o'tishini tezlashtirmoqda. Shu bilan birga, mavjud dasturlarning qamrovini kengaytirish orqali kichik va o'rta biznes subyektlarining ham subsidiya resurslaridan faolroq foydalanishini ta'minlash maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv raqobat muhitini yanada sog'lomlashtiradi va sektorning inklyuziv o'sishini rag'batlantiradi.

Soliq imtiyozlari orqali yirik transport kompaniyalarining investitsion salohiyati mustahkamlanmoqda. Endilikda bu tajribani kichik biznesga ham tatbiq qilish orqali innovatsion yechimlarni kengroq ommalashtirish, hamda yangi texnologiyalarni tezroq joriy qilish imkonini yaratish zarur. Xususan, raqamli transport boshqaruvi, ekologik toza texnologiyalar yoki sun'iy intellekt asosidagi yechimlarni joriy etayotgan kichik subyektlar uchun ham moslashtirilgan soliq rag'batlarini ishlab chiqish foydali bo'ladi.

Bojxona jarayonlarining samaradorligi yildan-yilga oshmoqda. Raqamlashtirish va avtomatlashtirish yo'nalishlarida olib borilayotgan ishlar yuk oqimini tezlashtirishga xizmat qilmoqda. Bu boradagi tajribani yanada

2 Ўрганилган манбалар асосида муаллиф томонидан шакллантирилган.




takomillashtirish uchun hujjat aylanishini soddalashtirish, blokcheyn kabi ilg'or texnologiyalarni joriy etish va inson omiliga bog'liq bo'lgan kechikishlarni minimal darajaga tushirish tavsiya etiladi.

Innovatsiyalarni tatbiq etish sohaga raqamli transformatsiyani olib kirishga xizmat qilmoqda. Ayrim kompaniyalar tomonidan ilgari surilgan texnologik yechimlar samarali natijalarni bermoqda. Kelgusida innovatsion faoliyatga ajratiladigan resurslar hajmini oshirish, ayniqsa, kichik biznes uchun texnologik infratuzilmaga kirish imkoniyatlarini kengaytirish orqali umumiy texnologik taraqqiyot tezligini oshirish mumkin. Maxsus grantlar, texnologik inkubatorlar va startaplarni moliyalashtirish dasturlari orqali bu boradagi salohiyatni to'liq ochish mumkin.

Xalqaro transport yo'laklarini rivojlantirish yo'nalishida sezilarli ijobiy siljishlar kuzatilmoqda. Transport oqimining ko'payishi, eksport-import tezligining ortishi va mintaqaviy logistika tarmoqlarining mustahkamlanishi bu jarayonni tasdiqlaydi. Endilikda ushbu rivojlanish sur'atini saqlab qolish va kuchaytirish uchun infratuzilma modernizatsiyasi va xalqaro standartlarga to'liq moslashuvni ta'minlovchi mexanizmlarni kuchaytirish zarur.

Umuman olganda, davlat tomonidan yaratilgan qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlar yuk tashish sohasining zamonaviy, barqaror va raqobatbardosh rivojlanishiga zamin yaratmoqda. Ushbu mexanizmlarni yanada samarali va ta'sirchan qilish uchun quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi: hujjatlashtirish va foydalanish tartiblarini soddalashtirish, kichik biznesni faol jalb etish, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish va xalqaro tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish orqali soha taraqqiyotiga yangicha turtki berish (1-rasm).



1-rasm. Yuk tashish sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari³.

Davlat subsidiyalari iqtisodiyotni strategik yo'nalishda rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Bugungi kunda ularning katta qismi yirik kompaniyalarga yo'naltirilmoqda, biroq ushbu tizimni yanada takomillashtirish imkoniyati mavjud. Xususan, subsidiya siyosatini yanada inkluziv va maqsadli shaklda amalga oshirish uchun kichik va o'rta biznes subyektlariga qaratilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqish tavsiya etiladi. Masalan, transport sohasida ekologik barqarorlikni ta'minlash maqsadida subsidiyalarni eko-transport vositalarini joriy etishga yo'naltirish orqali sohaga zamonaviy yechimlar olib kirish mumkin. Shu bilan birga, raqamli logistika tizimlarini tatbiq etish uchun ham subsidiya mexanizmlaridan foydalanish, sohaning raqamli transformatsiyasini jadallashtiradi.

Subsidiyalarning samarali taqsimlanishini ta'minlashda davlat boshqaruv tizimida ilg'or texnologiyalardan keng foydalanish dolzarbdir. Xususan, onlayn platformalar orqali ariza topshirish, hujjatlarni raqamlashtirish va subsidiya ajratish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali byurokratik yukni kamaytirish va shaffoflikni oshirish mumkin.

3 Ўрганилган манбалар асосида муаллиф томонидан шакллантирилган.



Soliq imtiyozlari iqtisodiy faollikni rag'batlantirishda muhim vosita bo'lib, ularni taqsimlashda innovatsion faoliyatga ustuvorlik berish maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy texnologiyalarni, jumladan, raqamli transport boshqaruvi tizimlari yoki sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilayotgan korxonalarni soliq yengilliklari orqali qo'llab-quvvatlash, ularning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ekologik transport vositalaridan foydalanuvchi yoki uglerod chiqindilarini kamaytiruvchi loyihalarni amalga oshirayotgan subyektlarga soliq imtiyozlarini taqdim etish orqali ekologik investitsiyalarni kengaytirish mumkin.

Bojxona tizimining samaradorligini oshirishda uni raqamlashtirish va avtomatlashtirish asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Blokcheyn texnologiyalarini joriy etish orqali bojxona operatsiyalarini real vaqt rejimida kuzatish, hujjatlar aylanishini soddalashtirish va operatsion jarayonlarni avtomatlashtirish mumkin. Bu esa, nafaqat tezlikni oshiradi, balki ishonchlilik va xavfsizlik darajasini ham mustahkamlaydi.

Shuningdek, yuklarni avtomatik aniqlovchi aqlli tekshiruv texnologiyalarini joriy etish orqali inson omiliga bog'liq xavflarni kamaytirish, jarayonlarni tezlashtirish va xavfsizlik standartlariga muvofiqlikni ta'minlash imkoniyati yaratiladi.

Transport-logistika sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish, uning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Davlat tomonidan bu yo'nalishga ajratiladigan moliyaviy resurslarni kengaytirish, ayniqsa kichik va o'rta biznes subyektlarini raqamli yechimlar joriy etishga rag'batlantirish orqali sezilarli natijalarga erishish mumkin. Innovatsiyalarga sarmoya kiritayotgan korxonalar uchun maxsus grantlar va subsidiya mexanizmlarini ishlab chiqish, shuningdek, innovatsion akselerator dasturlari doirasida moliyaviy yordam va ko'nikma rivojlantirish bo'yicha ta'lim loyihalarini yo'lga qo'yish orqali davlat va xususiy sektor hamkorligi mustahkamlanadi. Bu esa yuk tashish sohasida ilg'or texnologiyalar asosidagi yangilanishlarni jadallashtirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuk tashish sohasining strategik ahamiyatini inobatga olgan holda, uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish bozor iqtisodiyoti sharoitida tarmoqning barqaror va raqobatbardosh rivojlanishiga xizmat qiladi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, amaldagi qo'llab-quvvatlash choralari, asosan, qisqa muddatli moliyaviy imtiyozlar, soliq yengilliklari va infratuzilmaviy loyihalar bilan cheklanib qolmoqda. Holbuki, zamonaviy iqtisodiy sharoitda bu sohani rivojlantirish uchun faqat moliyaviy resurslar ajratish bilan cheklanmasdan, balki quyidagi kompleks yondashuvlar muhim ahamiyatga ega:

- tizimli va maqsadli institutsional mexanizmlarni joriy etish;
- samaradorlikka yo'naltirilgan subsidiyalash tizimini yaratish;
- logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish dasturlarini ishlab chiqish;
- tarif siyosatini segmentlashtirish;
- davlat-xususiy sheriklikni kuchaytirish.

Shu nuqtayi nazardan, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish, ularni bozor talablariga moslashtirish va raqobat muhitini buzmasdan, lekin samaradorlikni rag'batlantiruvchi iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy vositalarni joriy etish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, transport xizmatlari sifatining oshishi, yuk tashish xarajatlarining kamayishi, tranzit salohiyatining faollashuvi va mamlakatning tashqi savdo aylanmasining kengayishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 февралдаги «2022-2026 йилларга ўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ–60-сонли фармони. // www.lex.uz.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлиси Мурожаатномаси. 24 январь 2020 йил.
3. Халтурин, Р. Развитие транспортной инфраструктуры: проблемы и возможности / Р. Халтурин // Вестник Института экономики Российской академии наук - №6 - 2012. – С. 21-26.
4. Задворный, Ю. В. Формирование интегрированной транспортной инфраструктуры в регионе / Ю. В. Задворный // дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05. - М., 2005.- с. 152
5. Venables, A. J. (2020). Evaluating Urban Transport Improvements: Cost-Benefit Analysis in the Presence of Agglomeration and Income Taxation. *Journal of Transport Economics and Policy*, 41:173–188 p.
6. Рахимов Х.Ш. Мамлакат транспорт инфратузилмаси фаолиятини самарадорлигини ошириш. Иқт. фан. фал. ... дис. Автореф., Тошкент 2021.
7. Fayzullayev J.S. Improvement of Economic Efficiency of Development of Railway // *Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR)* ISSN: 2249 –0892 Vol9 Issue–2, Dec -2019. http://www.ajtmr.com/papers/Vol9Issue2/Vol9Iss2_P9.pdf
8. Fayzullayev, J.S. (2021) «Economic-mathematical model of evaluating the efficiency of the transport system,» *Economics and Innovative Technologies*: Vol. 2021: No. 1, Article 1. <https://uzjournals.edu.uz/iqtisodiyot/vol2021/iss1/1>
9. <https://review.uz/oz/post/infografika-uzbekistan-v-indekse-effektivnosti-logistiki-2016-2018-gg>.



10. Зоҳидов А.А. Марказий осиё транспорт тизимини самарали бошқариш механизмини такомиллаштириш. Иқт. фан. док. ... дис. Автореф., Тошкент 2018.
11. Frederick Starr S., Filat Yildiz, Martina reiser etc. The New Silk roads: Transport and trade in Greater Central Asia. Monograph Central AsiaCaucasus institute & Silk Road Studies Programm, Washington, D.C.: Johns Hopkins University-SAIS, 2019. – 514 p.
12. <https://data.worldbank.org/indicator/is.air.good.mt.k1>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>